

## O'ZBEK TILIDA BELGILASH OLMOSHINING (HAMMA) GRAMMATIK SHAKLLARI XUSUSIYATLARI

*Qosimjonova Farangiz Farid qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti magistranti*

*farangizfaridovna@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilshunosligida korpus tuzishning amaliy ahamiyati va zarurati haqida fikr yuritildi. Har tomonlama mukammal korpusni yaratish uchun lingvistik baza shakllantirish zaruriyati “hamma” belgilash olmoshining grammatik shakllar bilan birikuvidan vujudga kelgan morfemik lug'at asosida ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Korpus, lingvistik baza, grammatik shakl, morfemik lug'at, belgilash olmoshi.

**Annotation.** The article discussed the practical importance and necessity of building a corpus in Uzbek linguistics. The need to form a linguistic base to create a perfect comprehensive corpus was considered on the basis of the morphemic vocabulary formed by combining the pronoun "all" with grammatical forms.

**Key words:** Corpus, linguistic base, grammatical form, morphemic dictionary, marking pronoun.

**Аннотация.** В статье обсуждались практическая важность и необходимость построения корпуса по узбекскому языкознанию. Рассмотрена необходимость формирования лингвистической базы для создания совершенного комплексного корпуса на основе морфемной лексики, образованной путем сочетания местоимения «все» с грамматическими формами.

**Ключевые слова:** Корпус, языковая база, грамматическая форма, морфемный словарь, маркирующее местоимение.

Olmosh so'z turkumi har bir tilning o'z ichki tizimida alohida ko'rinishga ega. Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumi sifatida o'rganilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida “yashirin ma'noli” so'z turkumi sifatida alohida guruhlariga ajratilib “zamirlar” deya nomlangan. Gul, qalam, Sherzod leksemalari aniq ma'noli ot bo'lsa, men, siz, kim – “zamid otlar”dir. Bir, o'n, yuz kabi leksemalar son xarakteridagi olmoshlar sanalsa, necha, qancha kabilar zamir ya'ni yashirin ma'noli sonlardir. Ingliz tilshunosligida esa olmoshlarga turli qarashlar mavjud: "Ot yoki ot iborasi o'rniga ishlatiladigan so'z", Kollinz lug'atiga ko'ra, "Olmosh - bu kimgadir yoki biror narsaga murojaat qilish uchun ishlatiladigan so'zdir, chunki siz o'zni ishlatishingiz shart bo'lmaganda, ko'pincha uning o'rnida qo'llanila oluvchi so'zdan foydalanasiz". Rus

tilshunosligida ham olmoshlar narsa, predmet, harakat va holatni ko'rsatuvchi, ularga ishora qiluvchi birlik sifatida tadqiq qilingan.

Olmoshlarning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi ham yuqorida nomlari qayd etilgan tillarda mavjud ilmiy xulosalardan farq qilmaydi. “Ot, sifat, son, ravish o'rnida qo'llanib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi olmosh deyiladi”<sup>1</sup>. Olmoshlarni narsani, uning belgisi, holati yoki miqdorini bildiruvchi so'z turkumi sifatida tushunish yangilash xulosa bo'lib, aslida olmoshlar o'zi ishora qilayotgan so'zning o'ziga xos belgisiga ishora qiladi. Umuman olganda, olmosh so'z turkumi o'zbek tilshunoslari uchun favqulodda yangi mavzu bo'lmasa ham bu so'z turkumi doirasida o'z tadqiqini kutayotgan masalalar talaygina. Xususan mustaqil so'z turkumi sifatida o'zbek tilshunosligida o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan olmosh so'z turkumi borasida atroflicha ishlar qilingan. Olmoshlarning ma'no turlari, vazifasi va stilistik xususiyatlari o'rganilgan. Lekin ushbu turkumning grammatik shakllari yagona bazada jamlanmagan. Ehtimol bunga sabab tilimizning murakkab grammatik qurilishga ega ekanligi va morfologik shakllarning nihoyatda ko'pligi bo'lishi mumkin. Aynan mana shu masalalar o'zbek tili grammatik lug'atining ishlanishini ortga surib kelmoqda.

Aytish joizki, o'zbek tilida grammatik shakllarning yagona bazada jamlanib, lug'at sifatida shakllantirilishi o'zbek tili korpusining yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining matn korpuslarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tuzuvchi va tahlil qiluvchi alohida yo'nalishi bo'lib, jahon tilshunolariga mustaqil fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan ma'lum. Matn korpusi tildagi barcha lingvistik muammolarga shu tilda mavjud qonun-qoidalar asosida turli matnlar va misollar yordamida yechim topuvchi ma'lumotlar to'plamidir. Dunyo bo'ylab 9000 mingdan ziyod tillarning yo'qolib ketganligiga tarix guvoh. Bugungi globalizatsiya zamonida lingvistlar qamrov doirasi kichikroq bo'lgan tillarni saqlab qolishning eng maqbul usuli sifatida tillarning korpusini tuzishni e'tirof etishmoqda. Tilshunos olim B.R.Mengliyev ta'kidlaganidek “Axborot asrida rivojlanishga da'vogar har qanday til sun'iy intellekt tiliga aylanishi kerak. Sun'iy intellektga doxil bo'lmagan tilning taraqqiyoti haqida gap ochish ham to'g'ri emas”

Bugungi kunda til taraqqiyotida korpuslarning ahamiyati va o'rnining beqiyosligi sir emas. Jahon tilshunosligida rus, ingliz, arab, nemis, ispan kabi jahon tillari bilan bir qatorda boshqa polyak, chex, bolgar, slovak, serb, xorvat, lazgin, turk, tatar, tojik, boshqird, qrim-tatar singari kichik tillarning ham mukammallik darajasi va matnini ilmiy qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi o'z milliy korpuslariga egaligi fikrimizning isbotidir. “Dunyo kompyuter lingvistikasida milliy til korpusining

---

<sup>1</sup> Xolmanova Z. “Tilshunoslikka kirish” Toshkent -2007. 129-b.

mavjudligiga tilning yashovchanlik va kompyuter tiliga aylanish mezoni sifatida qaralmoqda”<sup>2</sup> Darhaqiqat, foydalanuvchilar uchun har tomonlama qulayligi, til o’rganuvchilar uchun tilga oid eng muhim qonun-qoidalar asosida tuzilgan matnlarni taqdim etishi va inson mehnati resurslarini tejashi bilan korpusning ahamiyati nihoyatda ulkandir. Biz tilimizning umrboqiyiligini ta’minlash maqsadida foydalanuvchiga tushunarli, yuqori qidiruv imkoniyatiga ega bo’lgan korpus yaratmoqchi ekanmiz eng avvalo lingvistik baza tuzishimiz talab etiladi.

Lingvistik baza bu tilning keng qamrovli(avtomatik tarjima,imloviy-tahrir dasturlari, sinonim, omonim, antonim lug’atlari) vazifalarga yo’naltirilgan ma’lumotlar ombori. Lingvistik bazalarda ma’lum bir tilning barcha sohalariga oid ma’lumotlari jamlanadi. Tilshunosligimizda mana shunday bazalarni yaratish uchun dastlabki qadamlar qo’yildi.

Quyida “Hamma” belgilash olmoshini morfologik lug’at tariqasida, grammatik shakllar qurshovida ko’rib chiqamiz:

Hammamiz	Hamma/miz
Hammangiz	Hamma/ngiz
Hammasi	Hamma/si
Hammalarimiz	Hamma/lar/imiz
Hammalaringiz	Hamma/lar/ingiz
Hammalari	Hamma/lari
Hammaning	Hamma/ning
Hammamizning	Hamma/miz/ning
Hammangizning	Hamma/ngiz/ning
Hammasining	Hamma/si/ning
Hammalarimizning	Hamma/lar/imiz/ning
Hammalaringizning	Hamma/lar/ingiz/ning
Hammalarining	Hamma/lari/ning
Hammani	Hamma/ni
Hammamizni	Hamma/miz/ni
Hammangizni	Hamma/ngiz/ni
Hammasini	Hamma/si/ni
Hammalarimizni	Hamma/lar/imiz/ni
Hammalaringizni	Hamma/lar/ingiz/ni
Hammalarini	Hamma/lari/ni

<sup>2</sup> Mengliyev Baxtiyor Rajabovich «O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 359 b.

Hammaga	Hamma/ga
Hammamizga	Hamma/miz/ga
Hammangizga	Hamma/ngiz/ga
Hammasiga	Hamma/si/ga
Hammalarimizga	Hamma/lari/miz/ga
Hammalaringizga	Hamma/lari/ngiz/ga
Hammalariga	Hamma/lari/ga
Hammada	Hamma/da
Hammamizda	Hamma/miz/da
Hammangizda	Hamma/ngiz/da
Hammasida	Hamma/si/da
Hammalarimizda	Hamma/lari/miz/da
Hammalaringizda	Hamma/lari/ngiz/da
Hammalarida	Hamma/lari/da
Hammadan	Hamma/dan
Hammamizdan	Hamma/miz/dan
Hammangizdan	Hamma/ngiz/dan
Hammasidan	Hamma/si/dan
Hammalarimizdan	Hamma/lari/miz/dan
Hammalaringizdan	Hamma/lari/ngiz/dan
Hammalaridan	Hamma/lari/dan
Hammaniki	Hamma/niki
Hammamizniki	Hamma/miz/niki
Hammangizniki	Hamma/ngiz/niki
Hammasiniki	Hamma/si/niki
Hammalarimizniki	Hamma/lari/miz/niki
Hammalaringizniki	Hamma/lari/ngiz/niki
Hammalariniki	Hamma/lari/niki
Hammadagi	Hamma/dagi
Hammamizdagi	Hamma/miz/dagi
Hammangizdagi	Hamma/ngiz/dagi
Hammasidagi	Hamma/si/dagi
Hammalarimizdagi	Hamma/lari/miz/dagi
Hammalaringizdagi	Hamma/lari/ngiz/dagi
Hammalaridagi	Hamma/lari/dagi
Hammagacha	Hamma/gacha
Hammamizgacha	Hamma/miz/gacha
Hammangizgacha	Hamma/ngiz/gacha

Hammasigacha	Hamma/si/gacha
Hammalarimizgacha	Hamma/lari/miz/gacha
Hammalaringizgacha	Hamma/lar/i/ngiz/gacha
Hammalarigacha	Hamma/lari/gacha
Hammadek	Hamma/dek
Hammamizdek	Hamma/miz/dek
Hammangizdek	Hamma/ngiz/dek
Hammasidek	Hamma/si/dek
Hammalarimizdek	Hamma/lari/miz/dek
Hammalaringizdek	Hamma/lari/ngiz/dek
Hammalaridek	Hamma/lari/dek
Hammaday	Hamma/day
Hammamizday	Hamma/miz/day
Hammangizday	Hamma/ngiz/day
Hammasiday	Hamma/si/day
Hammalarimizday	Hamma/lar/imiz/day
Hammalaringizday	Hamma/lar/ingiz/day
Hammalariday	Hamma/lari/day
Hammanikidagi	Hamma/niki/dagi
Hammamiznikidagi	Hamma/miz/niki/dagi
Hammangiznikidagi	Hamma/ngiz/niki/dagi
Hamasinikidagi	Hamma/si/niki/dagi
Hammalarimiznikidagi	Hamma/lari/miz/niki/dagi
Hammalaringiznikidagi	Hamma/lari/ngiz/niki/dagi
Hammalarinikidagi	Hamma/lari/niki/dagi
Hammanikigacha	Hamma/niki/gacha
Hammamiznikigacha	Hamma/miz/niki/gacha
Hammangiznikigacha	Hamma/ngiz/niki/gacha
Hammasinikigacha	Hamma/si/niki/gacha
Hammalarimiznikigacha	Hamma/lari/miz/niki/gacha
Hammalaringiznikigacha	Hamma/lari/ngiz/niki/gacha
Hammalarinikigacha	Hamma/lari/niki/gacha
Hammanikidagi	Hamma/niki/dagi
Hammamiznikidagi	Hamma/miz/niki/dagi
Hammangiznikidagi	Hamma/ngiz/niki/dagi
Hammasinikidagi	Hamma/si/niki/dagi
Hammalarimiznikidagi	Hamma/lari/miz/niki/dagi
Hammalaringiznikidagi	Hamma/lari/ngiz/niki/dagi

Hammalarinikidagi	Hamma/lari/niki/dagi
Hammanikidek	Hamma/niki/dek
Hammamiznikidek	Hamma/miz/niki/dek
Hammangiznikidek	Hamma/ngiz/niki/dek
Hammasinikidek	Hamma/si/niki/dek
Hammalarimiznikidek	Hamma/lari/miz/niki/dek
Hammalaringiznikidek	Hamma/lari/ngiz/niki/dek
Hammalarinikidek	Hamma/lari/niki/dek
Hammanikiday	Hamma/niki/day
Hammamiznikiday	Hamma/miz/niki/day
Hammangiznikiday	Hamma/ngiz/niki/day
Hammasinikiday	Hamma/si/niki/day
Hammalarimiznikiday	Hamma/lari/miz/niki/day
Hammalaringiznikiday	Hamma/lari/ngiz/niki/day
Hammalarinikiday	Hamma/lari/niki/day

Belgilash olmoshlari shaxs, narsa-predmet, belgini biror belgi xususiyati bo'yicha ajratib yoki jamlab, umumlashtirib ko'rsatish vazifasini bajarib jamlash olmoshlari deb ham nomlanadi. Belgilash olmoshlariga har kim, har nima, har qanday, har qaysi, har bir; hamma, barcha, bari, butun, yalpi singari olmoshlar misol bo'la oladi.

Biz belgilash olmoshlari sirasidan “Hamma” olmoshini o'z tadqiqot doiramizda tahlil qildik. Bunda birinchi ustunda belgilash olmoshi shakli, ikkinchi ustunda uning grammatik shakllar pozitsiyasi keltirilgan. Biz hamma leksemasini egalik, kelishik shakllari va qarashlilik-tegishlilik ma'nosini ifodalovchi –niki affiksi bilan shuningdek, o'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalovchi – dek, day, chegaralash ma'nosini beruvchi –gacha, o'rin ma'nosida qo'llaniluvchi –dagi shakllari bilan valentlik imkoniyatining bir qismini ko'rib chiqdik va natijada birgina hamma leksemasining 114 ta shakli paydo bo'ldi.

Agarda yuqoridagi jadvalga hamma olmoshi qabul qilishi mumkin bo'lgan boshqa shakllarni kiritsak hamda bu morfologik shakllarning har biriga –mi, –chi, –a, –ya, –da yuklamalari alohida qo'shilsa, birgina hamma leksemasining bir necha yuzlab ko'rinishlari yuzaga keladi. Bu olmoshning birgina ma'no turi va birgina olmosh leksemasi ustida olib borilgan tadqiqot xolos. Olmoshning qolgan oltita tiplarini qamrab olgan leksemalarning har biri ustida mana shunday tadqiqot olib borilsa son-sanoqsiz ko'rinishlar yuzaga keladi. O'z o'zidan bu morfologik shakllarni inson qo'li bilan tuzib chiqish murakkab jarayon bo'lib, u nihoyatda katta ishchi kuchi va uzoq vaqtni talab etadi. Shu sababdan bu ishni kompyuter texnologiyalari zimmasiga yuklash eng samarali yo'l hisoblanadi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, o’zbek tilida mavjud turkumlar yuzasidan morfologik lug’atlarning ishlanishi lingvistik bazani boyitishda qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi. Bu ma’lumotlar yig’ilib milliy korpus talablari asosida tizimlashtirilsa, korpus foydalanuvchisida birgina buyruq amali orqali tilimizda mavjud hodisalar bilan tanishish imkoniyati vujudga keladi va albatta vaqtni to’laqonli tejaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 36.
2. Mengliyev B. O‘zbek tili taraqqiyoti va rivojlanish omillari// ( O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari)–Toshkent,2020-yil,19-20-oktabr.B.358-359.
3. Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari: dissertatsiya/ M.O'.Xoliyorov–Termiz, 2021. B 73-74.
4. Xolmonova.Z. “Tilshunoslikka kirish” Toshkent 2007.